
Rishton tumani hokimining birinchi o'rinbosari D.Rahmonqulovning MUROJAATI

Rishton tumanida 4 ta tajriba asosida aholi bandligini ta'minlash, kichik biznesga jalb qilish bo'yicha Rishton tumani hokimining birinchi o'rinbosari D.Rahmonqulovning MUROJAATI

Assalomu alaykum, Tumandoshlar!

Tumanimiz ish o'rinlarini tashkil qilishda quyidagi moliyaviy instrumentlardan foydalaniladi. Kredit mablag'lari ajratishni oshirish orqali tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida tijorat banklari tomonidan barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 2024 yilda tadbirkorlik loyihalarni amalga oshirish va qo'llab-quvvatlashga 500,3 milliard so'mdan ortiq kredit resurs mablag'lari yo'naltiriladi. Bundan tashqari, Muhtaram Yurtboshimiz tomonidan yaratib berilgan 4 ta tajriba, ya'ni Sayxunobod, Zarbdor, Uychi va G'ijduvon tajribalari yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, aholi daromadini oshirish, tomorqadan samarali foydalanish, mahallalarda drayver loyihalarni ishlab chiqish va sanoatni rivojlantirishda dasutri amal bo'lib xizmat qilmoqda.

Joriy yil mobaynida "Sayxunobod tajribasi" asosida 71 ta mahallalarda jami 1421 ta mikroloiyahalar amalga oshirishni rejalashtirgan edik.

Shundan amalda 1311 ta 35,9 mlrd.so'mlik mikroloiyahalar shakillantirilib dasturga kiritilgan bo'lsa, noyabr oyida 267 ta 9,2 mlrd.so'mlik loyihalarni amalga oshirish belgilangan.

"Zarbdor tajribasi" asosida 8 ta mahallalarda sanoat, savdo, xizmat va zamonaviy agrotexnologiyalar sohasida jami 9 ta loyihalar amalga oshirish rejalashtirilgan. Yaratiladigan ish o'rinlari soni 880 ta. Amalda bugungi kun holatiga 7 ta loyihalar ishga tushurilib, 838 ta ish o'rinlari yaratildi.

Rishton tumanida "G'ijduvon tajribasi" asosida 10 ta mahallalarda "tepaga o'sadigan" (vertikal) sanoat binolari tashkil qilish, bino va inshootlarga ehtiyoji yuqori bo'lgan tadbirkorlar ishlab chiqarish quvvatlarini ko'chirish bo'yicha jami 27 ta loyihalar amalga oshirish rejalashtirilgan. Yaratiladigan ish o'rinlari soni 1278 ta.

Topshiriqqa asosan 27 ta loyihalar shakillantirildi. Ish o'rinlari soni - 657 ta. Amalda bugungi kun xolatiga 14 ta loyihalar ishga tushurilgan. Ish o'rinlari soni - 787 ta.

Aholi bandligini ta'minlash bo'yicha "Uychi tajribasi" asosida iyul-dekabr (2-yarim yillik) oylari mobaynida bank mijozlari bilan 20 ta uchrashuvlar o'tkazish va buning natijasida 3106 ta ish o'rinlari yaratish belgilangan. Amalda bugungi kun xolatiga banklar tomonidan 15 ta uchrashuvlar o'tkazilib, 2815 ta ish o'rinlari yaratildi.

Jumladan, oktyabr oyida 2 ta uchrashuv tashkil etilib, 429 ta ish o'rinlari yaratildi.

2024-11-13 13:09:27